



ABDULLA QODIRIY SHE'RIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK G`OYALARI

O`rolova Dinora

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktab 10-sinf o`quvchisi

ANNOTATSIYA: Maqolada buyuk jadidlardan biri bo`lgan Abdulla Qodiriyning she`rlari tahlilga tortildi. She`rlarida qalamga olingan o`sha davr jamiyatidagi illatlar va ma'rifatsizlikning sabablari o`rganib chiqildi. Har bir she`r alohida tahlil qilinib, ularning uslubi, mavzusi hamda ilgari surgan g`oyalari o`rganildi.

KALIT SO`ZLAR: “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag`il”, “Ahvolimiz”, “To`y”, she`rlar, ma'rifatparvarlik, millat, milliy ruh, jamiyatdagi illatlar.

O`zbek xalqining har bir xonadoniga Otabek, Kumush, Anvar, Ra'nolar qiyofasida kirib borgan Abdulla Qodiriy millat uchun ilm-ma'rifat suv va havodek zarur bo`lgan, yurt tepasida johil shaxslar egalik qilayotgan bir zamonda hayotini tazyiqlar, xavf-xatarlar ostiga qo`yib bo`lsa ham millati uchun yozishdan to`xtamadi. Adib ko`p asrlik milliy adabiyotimiz rivojida keskin burilish yasab yangi bosqichni boshlab bergan nodir asarlar yaratdi. Bu jihatdan, Muxtor Avezov "Abdulla Qodiriy asarlari 1920-yillarda go`yo tekis sahroda to`satdan Pomir tog`lari vujudga kelgandek paydo bo`ldi..."-deb ta'kidlagan edi. U yaratgan qahramonlari orqali xalqni hamisha ma'rifatli bo`lishga, jamiyatdagi illatlarni yo`q qilishga, ma`naviyat va ma'rifatni, milliy qadriyatlarni yuksaltirishga undadi. Shu bilan birga, ijodkor barcha asarlarida o`zbek xalqiga xos bo`lgan milliy ruhni tarannum etdi. Ushbu milliy ruhni uning nafaqat nasriy asarlari, balki oz sonli she`rlarida ham kuzatishimiz mumkin.



“Tog‘larning viqorini ko‘rish uchun ulardan uzoqlashish zarur, xuddi shunday holat buyuk ishlar va buyuk shaxslarda kuzatiladi. Abdulla Qodiriyning so‘nmas ijod bahosining buyukligini ko‘rish va tushunish uchun yarim asrdan ortiq vaqt talab etildi” – deb yodga olgan edi Izzat Sulton o‘z esdaliklarida. Darhaqiqat, ijodkorning yozgan asarlarini, g`oyalarini bir asr o`tgan bo`lsa-da to`liq anglab yetolganimiz yo`q. Abdulla Qodiriyl shoir sifatida yozgan she’rlari bor-yo‘g‘i “To‘y”, “Ahvolimiz” va “Millatimga bir qaror”. “Fikr aylag‘il” kabi oz bo‘lsa-da o‘zining, mavzulari, mazmuni, chuqur ma’nolari bilan hozirgacha ahamiyatini yo`qotmay kelmoqda. Qodiriyning shoir sifatidagi ilk she’ri “To‘y” bo`lib u da’vat, chaqiriq ruhida yozilgan. She’rda milliy urf-odatlarimizdan biri hisoblangan to‘y marosimi tanqid ostiga olingan. To‘y boy, ma’lum bir moddiy resursga ega bo‘lganlar uchun pisand bo‘lmasa-da, beva-bechora mehnat ahli uchun ko‘p hollarda anchagina qiyin bo‘lgan. Buning ortidan ko`plab mehnatkash va kambag`al xalq qarzga botib, halokat yoqasiga borib qolardi. Shuning uchun ham ijodkor “kori ma’jusi, kori shayton to‘y”lardan voz kechishga da’vat etib,

Besh kun to ‘uni so ‘ngidin

Ketibon mulklar bois fig ‘on to ‘y.

Boyon to ‘yig ‘a yerlilar qarab

Etdi sarf toki tandagi jon to ‘y¹. -deya arz qiladi. Bu haqida ijodkor o‘zining yana bir she’ri “Fikr aylag‘il”da ham

“Yer sotarlar elda necha to ‘y bajo etmak uchun,

Chunki bid’atin yo ‘lida ham fidodur jonu tan”²- deya shu mavzuga qayta murojaat qiladi. Bundan mamlakatda avj olgan ochlik, qashshoqlik vaqtida shoir ushbu muammoga befarq qarab turolmaganini anglashimiz mumkin. E’tiborlisi shundaki, bu masala hozirgi vaqtda ham jamiyatdagi muammolardan biri bo`lib

¹ Abdulla Qodiriyy, “Sadoyi Turkiston” 1915 yil, 64-son, 20 mart, 2-bet

² Abdulla Qodiriyy “Oina” jurnali, 1915 yil, 12-son, 5-bet



qolmoqda. Bu borada Xayriddin Sulton: “Eng muhimi, o’zbek xalqining milliy g’oyasini juda muxtasar tarzda, bor-yo`g`i ikkita so`z orqali ifoda etsa bo`lar ekan. Ya’ni asrlar sinovidan o’tib, o’tda yonmaydigan, suvda cho’kmaydigan, tuproqda chirimaydigan metin bir tushuncha, sobit bir e’tiqod bo’lib shakllangan, o’zbek xalqining hayot va mamot tarziga aylangan bizning g’oyamiz “to`y-hasham” degan soddagina so’zlarda mujassam topar ekan. Bu o’rinda “to`y” so’zi faqat to`y-tantanani emas, balki milliy odatlarimiz bilan chambarchas bog`langan, marjonday tizilib keladigan bir qator tushunchalarni – a’za, ma’raka-marosimlarni anglatsa, “hasham” so’zi dabdaba, namoyish, boyligi yoki mavqeyini (bor-yo`qligidan qat’i nazar) ko`z-ko`z qilib, shundan chuqur mammuniyat va qanoat his etib yashashni anglatadi”³.-deb aytib o’tgan. To‘g’ri, to‘y oshna-og‘ayni, qarindosh-urug’, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘yni bir-biriga yaqinlashtiradi. Biroq ikkala adib ham bu milliy urf-odat va an’analar ortidan isrofgarchilikka yo`l qo`yilishini xohlamaydi.

Xuddi shunday, Qodiriyning “Ahvolimiz” she’rida yoritilgan mavzular, muammolar ham haligacha o`zgarmaganini payqash mumkin.

*Ko‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulg‘a sotamiz.*

G`aflatda yotgan millatga murojaat qilar ekan ijodkor jamiyatdagi bir qancha illatlarni sanab o’tadi. Jumladan, yoshlarning “kokil solib, oh-voh” bilan o’tayotgan umrlariga achinadi. Hamda ularning “har kun takyalarda nasha ko‘knori chekib” o’tirishini millatdagi qoloqlik, loqaydlikning bir sababi qilib ko`rsatadi. Shu bilan birga, she’rda, asosan, ilmsizlikni, johillikni qoralaydi va xalqni ma’rifatga da’vat etadi. Ota-onalarni farzandlariga ilm, odob, so‘z odobini o`rgatishga chorlaydi.

Shunday qilib, ijodkor uyqudagagi, g`aflatdagi millatni uyg`otishni o`zining burchi deb bilib, bu mas’uliyatni bo`yniga oladi.

³ Xayriddin Sulton. “Odamlardan tinglab hikoya”. “O’zbek xalqining milliy g’oyasi”. -T.: “Adabiyot”, 2020.-B.263



*Kelingiz yoshlar, ziyo'lilar bu kun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar qodir esak uyg'otamiz.*

“Millatimga bir qaror” she’rini diqqat bilan o`qib chiqar ekanmiz, jaholat botqog’iga botgan bir millatga qarata aytilgan chaqiriq ekanligini anglaysiz. Nodonlik ta’siridan zulmatga aylangan to`rt faslni ma’rifat chirog’i bilan yoritib hayotini bahorga aylantirish mumkin ekanini ta’kidlar ekan, xalqni ko`proq ilmga, ma’rifatga sarmoya kiritishga, boylarni ham isrofgarchilikdan qochib pullarini maktablar uchun sarflashga undaydi. Zero, Avaz O`tar tili bilan aytganda:

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab
O`qusin yoshlарimiz, ko`ngluni shod etgusi maktab.
Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,
Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Shu o`rinda yetim va bechoralarni ham o`ylab, ularning och qolmasliklari uchun ko`proq ehsonlar qilish kerak ekanini ta’kidlab o’tadi.

*Bizning johilligimizni ko‘rib ul shod bo‘lganlar,
Ko‘rib mashg‘uliyatimizni ilmg‘a sharmisor o‘lsun.*

Ushbu baytda esa xalqning ilmli bo`lib, johillikdan qutulgan davriga umid bog`lash, yorqin kelajakni orzu qilish yaqqol aks etgan. Millatning kelajagini bunyod qilishda hamma birga harakat qilishi kerakligini aytgan.

Adibning shoир sifatida yozgan so`nggi she’ri “Fikr aylag`il” ham mavzu dolzarbligi, jamiyatda tutgan ahamiyati bilan qolgan she’rlari kabi o`quvchiga o`zgacha ta`sir o`tkazadi. Ushbu she’rida jamiyatdagi “fosiq, johil va chapan” kimsalarni tanqid qilgan. Kishilarning bir-biriga bo`lgan munosabatini, odamlar orasidagi dushmanlikni qoralagan. Bu she’rda ham johillik, isrofgarchilik, oqibatsizlik kabi illatlar bosh mavzu bo`lib xizmat qilgan. Yana bir e’tiborli jihat, u she’rlarini yozar ekan ularning oxirida isyonini biroz yumshatib o`zining qattiq tanqidi va ochiq muhokamasi uchun soddagina uzr aytib qo`yadi. Bu esa ijodkorning o`ziga xos samimiyatini ko`rsaib beradi. Bu bilan u she’ri orqali



o`quvchiga yana bir qadam yaqinlashgandek bo`ladi va gaplari, ilgari surgan goyasi insonlarga chuqurroq ta`sir qilishiga erishadi. Masalan, “Fikr aylag`il” she’ri so`ngidagi:

*Qodiriy nazdingiza oz hasratidin so `yladi,
Ayb etub qilmang haqorat, muhtaram ahli vatan.*

misralardan o`quvchi anchagina mutaassir bo`ladi. Bundan ko`rinadiki, ijodkorning she’rlari nafaqat mavzusi bilan, balki o`zining samimiyati, soddaligi bilan ham o`quvchilar ko`nglidan joy olar ekan. Muhimi, she’rlar har qanday insonga ha birday tushunarli va ta’sirlidir. Bu she’rlarni o`qigan har qanday inson qalbida ezgulik uchun kurash alangasi o`t olishi, atrofidagi muammolarga bo`lgan befarqlikdan voz kechishi ayni haqiqat.

Xulosa qilib aytganda, buyuk adib ijodida uning she’rlari o`ziga xos ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, adib mana shunday o`lmas asarlari, she’rlari, romanlari, hikoya, ocherk va maqolalari bilan o`zbek adabiyotida o`chmas iz qoldirdi. Uning o`zbek millati oldidagi xizmatlari haqida Islom Karimov shunday degan edi: “O`zbek xalqining ma’naviyat va ma’rifatini, milliy qadriyatlarini va ongini yuksaltirish yo`lida u zotning qilgan xizmati beqiyosdir”. Qodiriyning buyuk siymosi, mangu barhayotligi haqida o`ylar ekanmiz beixtiyor Navoiyning bir baytini yodga olamiz:

*Bu gulshan ichraki yo`qtur baqo gulig`a sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshiliq bila ot.*

Mana shunday “ajab saodat”ga erisha olgan so`z zargari haqida qancha ko`p yozsak shunchalik oz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy, “Sadoyi Turkiston” 1915 yil, 64-sон
2. Abdulla Qodiriy “Oina” jurnali, 1915 yil, 12-сон
3. Xayriddin Sulton. “Odamlardan tinglab hikoya”-Т.: “Adabiyot”, 2020
4. Umarali Normatov. “Qodiriy mo`jizasi”-Т.: “O`zbekiston”, 2010